



“ADIBNING BOLALIGI YOXUD SHAYXZODA HAYOTIGA NAZAR”

*Toshkent davlat transport universiteti Transport tizimlari boshqaruvi
fakulteti Talabasi
Eshpo‘latov Behzod Nodir o‘g‘li*

Annotation: This article notes the childhood of Maqsud Shaykhzoda, an Azerbaijani artist, who has a special place in Uzbek literature, not only as a poet, but also as a strong playwright, literary scholar and educator. It is about the artist's love of literature, his first poem and his student years. His pedagogical activity, modern works, the artist's attitude to the time are reflected.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ozarboyjonlik ijodkor, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o’ringa ega, nafaqat shoir, balki kuchli dramaturg, adabiyotshunos olim, pedagog Maqsud Shayxzodaning bolaligi haqida qaydlar keltiriladi. Ijodkorning adabiyotga muhabbati, ilk she’ri va talabalik yillari to’g’risida so’z boradi. Pedagogik faoliyati, zamona zayli bois yaratilgan asarlari, ijodkorning davrga munosabati aks ettiriladi.

Keywords: Sheikhzada, Uzbek literature, childhood, creative heritage, translation, dramaturgy, years of repression, Fergana, Alisher Navoi, poetry, historical works, philosophical thought, cultural heritage.

Kalit so‘zlar: Shayxzoda, o‘zbek adabiyoti, bolalik, ijodiy meros, tarjima, dramaturgiya, qatag‘on yillari, Farg‘ona, Alisher Navoiy, she’riyat, tarixiy asarlar, falsafiy fikr, madaniy meros.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Shayxzoda o‘zining noyob ijodi va murakkab hayot yo‘li bilan ajralib turadi. U adabiyot maydoniga o‘ziga xos uslub, teran falsafiy fikr va jozibali she’riyati bilan kirib kelgan. Uning



bolaligi va hayot yo‘liga nazar tashlash orqali, biz faqatgina shoir emas, balki zamonasining og‘ir sinovlariga dosh bergen inson siymosini ham ko‘rishimiz mumkin. Shoir bolaligiga nazar soladigan bo‘lsak, taqdir taqozosi bilan o‘zbek diyoriga kelib qolgan ozarboyjonlik yosh yigit o‘zbek tilini mukammal o’zlashtirdi. Garchi O‘zbekistonda ijodni boshlagan bo‘lsada, Ganja o’lkasiga bo’lgan muhabbati uning sog’inchi satrlarida aks etib turadi. Uning “Toshkentnoma” dostonida ozar yurtiga bo’lgan cheksiz mehri yaqqol aks etadi. Shayxzodaning bolaligi haqida turlicha talqinlar mavjud bo’lsa-da, shoirning rus tilidagi “Mening tarjimai holim” bitigida keltirilishicha, ijodkor 1908 yili Tbilisi shahrida tug’ilgani, otasi Ma’sumbek fel’dsherlik maktabini tugatib, malakali shifokor bo’lgani, bezgak xastaligini davolashda aholiga anchayin foydasi tekkani, Ellikka yaqinlashgan kezlarda Moskvadagi universitetning tibbiyot fakultetini tamomlab, Ogdoshdagagi shahar ambulatoriyasida bosh shifokor bo’lib faoliyat yuritganini aytib o’tadi. Onasi Fotimaxonim esa uezd komitetida xotin-qizlar bo’limi mudiri bo’lib ishlashini keltiradi.

Shoir ilk savodni turk tilidagi shahar mактабида олди. О’ша paytlarda ozarboyjon tili turk tili deb atalgan. Gruziya poytaxtida tavallud topgan ijodkorning bolaligi Ozarboyjonning Ogdosh shahridda kechgan. Shoir ayrim sabablarga ko’ra, Ogdoshni tug‘ilgan vatani deb hisoblaydi. Shayxzodaning adabiyotga bo’lgan mehri xususida to‘xtaladigan bo’lsak, adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov Shayxzoda bilan qilgan suhbatlari asosida yozgan “Yashasin tabassum” sarlavhali maqolasida shoirning otasi Ma’sumbek o’zzamonasining taraqqiyatini ziyorisi bo‘lib, tibbiyat ilmidan tashqari, san’at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqishi, Ma’sumbekning xonadoni o’sha zamonda Ogdosh shahrining madaniy, adabiy markazi bo‘lib, shaharning eng ilg‘or ziyorilari uning uyiga yig’ilib, san’at, adabiyot, siyosat va falsafadan munozaralar olib borishlarini keltiradi. Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balizak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari adabiy muhitning asosiy mavzularidan biri bo‘lishi, shubhasizdir. Bo‘lajak



shoir shoh asarlarning jozibali ohangi va sehridan babra olib yashaganini qayd etadi.

“Rushdiya” mактабining a’lochi o‘quvchilaridan biri bo‘lgan Shayxzoda sekin - asta she’rlar ham yoza boshlaydi. 1920 yilda ijodkor o‘qigan maktabga Narimon Narimonov ismli bir inqilobchi keladi. Ozarbayjonda sovet hokimiyatining o‘rnatalishi munosabati bilan Ogdoshga taniqli inqilobchi Narimon Narimonovning tashrifini ogdoshliklar katta shodiyona bilan qarshi oldilar. Aynan o‘sha kuni Shayxzoda

muallimlarining “buyurtma”si bilan yozilgan “Girmizi askar nag’masi” (“Qizil askar qo‘shig’i”) degan she’rini bolalarga xos ko‘tarinki ruh bilan o‘qydi. 13 yoshli bolakayning she’ridan ta’sirlangan inqilobchi uni quchoqlab o‘padi va uning she’rini Bokuda nashr etilgan “Kommunist” gazetasining 1921 yil 12 dekabr sonida chop ettiradi. Ilk matbuotda she’ri chiqqan ijodkor yanada ruhlanib ijodni davom ettiradi.

Naim Karimov keltirishicha, 1925 yili Bokudagi yagona pedagogika bilim yurti – dorilmualliminni a’lo baholar bilan tugatgan Maqsud Ozarbayjon Maorif xalq komissarligining yo’llanmasi bilan Darband shahriga yo‘l oladi. Dog’iston Kaspiy dengizi sohiliga joylashgan, Ozarbayjonga shimol tomondan chegaradosh o’lka bo‘lib, uning Kaspiy dengiziga tutash yerlarini 1722 yilda Pyotr 1 qo‘shinlari bosib olgan edi. Garchand bu joylar Ganja shartnomasiga binoan 1735 yilda Eron ixtiyoriga berilgan bo‘lsa-da, 1813 yilda imzolangan Guliston shartnomasiga ko‘ra, Dog’iston Rossiya tasarrufiga o‘tgan. Biroq emin -erkin yashash tarziga ko‘nikkan va ozodlikni hamma narsadan afzal biluvchi tog‘li aholi uzoq yillar mobaynida G‘ozi Muhammad, Hamzatbek va Shomil singari imomlar rahbarligida mustaqillik uchun kurash olib borgan. 1920 yil martida qizil armiyaning jangovar harakati bilan Dog’iston uzil-kesil bolisheviklar qo‘liga o‘tdi.



1921 yil 20 yanvarda esa Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining qarori bilan Dog‘iston Rossiya federatsiyasi tarkibidagi avtonom respublika, deb e’lon qilindi. Dorilmualliminni a’lo baholar bilan tugatgan Shayxzodaning ana shu avtonom respublikaga ishga yuborilishi tasodifiy emas. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxirlarida Dog‘iston aholisi Ozarbayjon hududida vujudga kelgan yirik davlat – Kavkaz Albaniyasi fuqaroligiga o‘tgan.

Shayxzoda ijodga juda yoshligidan kirishgan. U dastlab tarjimalar bilan shug‘ullangan, keyinchalik esa o‘zining mustaqil she’riy asarlarini yaratishga kirishgan. Uning ilk asarlari lirik ruhda bo‘lib, ularda inson qalbi, muhabbat, ona-Vatanga sadoqat kabi mavzular aks etgan. Keyinchalik esa u ijtimoiy hayot, xalqning orzu-umidlari, davrning og‘riqli masalalarini ham qalamga ola boshladi. Shayxzoda faqatgina ijodkor emas, balki o‘z e’tiqodiga sodiq shaxs sifatida ham tanilgan. 1937-yilgi qatag‘on yillarida u ham ko‘plab ziyolilar qatori aybsiz qamalgan va surgun qilingan. Ushbu og‘ir davr uning hayoti va ijodiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Biroq u bu sinovlardan so‘ng ham ijod qilishdan to‘xtamadi. Uning asarlarida inson qadr-qimmati, erkinlik vaadolat uchun kurash motivlari yanada kuchaygan. Shayxzoda o‘zbek adabiyotiga she’riyat, dramaturgiya va tarjima sohasida katta hissa qo‘shtigan. U ko‘plab mashhur asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan, ayni paytda o‘zining ham tarixiy va falsafiy asarlari bilan adabiyotimizni boyitgan. Uning nomi nafaqat she’riyat, balki dramaturgiya janrida ham ulkan yutuqlarga erishgan adib sifatida tilga olinadi. Shayxzodaning hayoti va ijodi bugungi kunda ham adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilmoqda. Uning she’riyati, dramatik asarlari va tarjimalari milliy madaniyatimiz xazinasining ajralmas qismidir. Uning ijodi yosh avlodni adabiyotga, insoniy fazilatlar va ma’naviy yuksaklikka undovchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Shayxzoda o‘zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri bo‘lib, uning hayoti va ijodi xalqimiz uchun ibratlidir. U o‘z ijodi orqali inson qalbining eng chuqur tuyg‘ularini ifoda etgan, adolat va haqiqat yo‘lida sobit qolgan shaxsdir.



Uning boy merosi bugungi va kelajak avlodlar uchun bebaho xazina bo‘lib qoladi. Shayxzoda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning hayoti va ijodi xalqimiz madaniyatining ajralmas qismidir. U o‘zining she’riyati, dramaturgiyasi va tarjimalari orqali o‘zbek adabiyotini boyitib, chuqur falsafiy fikrlari bilan adabiyot ixlosmandlarini ilhomlantirdi. Murakkab hayot sinovlariga qaramay, ijoddan to‘xtamagan bu ulug‘ siymo o‘z xalqiga sadoqat bilan xizmat qilgan. Uning merosi bugungi kunda ham yosh ijodkorlar va adabiyotshunoslar uchun bebaho o‘rganish manbai bo‘lib qolmoqda. Shayxzodaning ijodiadolat, inson qadr-qimmati va haqiqat uchun kurash g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, bu jihatlari uni doimo xalq yuragida saqlab qolishiga xizmat qiladi.

Umr beshafqat. Yillar suronida toblangan ijodkor insonlarni bir-biriga oqibatli bo‘lishga chaqiradi. Samimiyatni qadrlaydi. Uning asarlaridagi samimiyatga yo‘g‘rilgan qarashlar kitobxonlarni uzoq yillardan beri adib bitiklari bilan hamnafas bo‘lishga undaydi...

Adabiyotlar:

1. Shayxzoda M. Toshkentnoma. 1958 y.
2. Shayxzoda M. Chorak asr devoni: Tanlangan asarlar. M. Shayxzoda. - Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958 y.
3. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Ushbu asarda Shayxzodaning ijodi XX asr o‘zbek adabiyoti kontekstida ko‘rib chiqilgan. Toshkent, 1999 yil